

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701337**

Toshkent – 2017

**ONA TILI VA ADABIYOT**

- 1.** Taqillaydi eshik nogahon,  
-Kimsan?- Deyman tugab sabotim,  
-Ochgil, -deydi. -Bu—men, qadrdon,  
Bilmoq bo'lsang-bardoshdir otim.  
Ushbu she'riy parchada nechta egasi yashirilgan soda fe'l kesimli gap mayjud?  
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
- 2.** Qaysi gapda fonetik o'zgarishga uchragan so'z yasama so'zga tobelangan?  
A) *Qulog'ing soz eshitsa agar, Nozik sasga bir dam quloq os.*  
B) *Yonib ishqı alangasida, Oy qiladi unga tabassum.*  
C) *O'zligim bilmoqqa davrim Berdi imkon, o'zbegin.*  
D) *Mening uyg'og' qalbimga ayon, Ne xususda kuylar shalola.*
- 3.** Berilgan gapda hokim bo'lak vazifasida kelgan sifat(lar) nechta?  
Yigit oddiy kiyinigan, o'rtabo'y va chiroyl ekan.  
A) 3ta B) 4ta C) 2ta D) Ita
- 4.** Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?  
A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
- 5.** Quyidagi qaysi gap(lar)da fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.  
2. Ko'paning gulord qavig'i hammani qiziqtidi.  
3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.  
4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rniidan qo'zg'ab qo'ydi.  
A) 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3 D) 4
- 6.** Bundan anglagan tushuncham shu bo'lidiki, ba'zi insonlar faqat yeyish uchun yashaydilar, ba'zilar yashash uchungina yeydilar.  
Ushbu gap haqida to'g'ri hukmi toping.  
A) *ergash gap(lar) tarkibida yasama so'zning yasama so'zga tobelanishi kuzatiladi.*  
B) *bosh gap tarkibida bitta yasama so'z qatnashgan*  
C) *ushbu murakkab qo'shma gapdag'i barcha yasama so'zlarning yasalish asosi ot so'z turkumiga mansub*  
D) *ushbu gap bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
- 7.** **Gapirganda avvalgi baland ovoz bilan emas, shivirlab gapirdi.**  
Ushbu gapdagisi yasama so'zlar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *ravishdan sifat yasalgan*  
B) *taqlid so'zdan fe'l yasalgan*  
C) *otdan fe'l yasalgan*  
D) *sifatdan ot yasalgan*
- 8.** Qaysi gapdagisi so'zlar tarkibida ismlarning va fe'llarning munosabat shakllari o'zaro omomimligini namoyon qilgan?  
A) *Chin do'st - tug'ishganing bilan teng.*  
B) *Mevali daraxt yerga engashar.*  
C) *Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam - dilim.*  
D) *Onangni kaftingga tutsang, singlingni kiftingda tut.*
- 9.** Berilgan so'zlardan qaysilari qismlaridan biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan, bir xil so'z turkumi kompozitsiyasidan hosil qilingan qo'shma otlar hisoblanadi?  
1) gulbeor; 2) atrigul; 3) toshbag'ir; 4) qo'yko'z; 5) belbog'; 6) bodomqovoq;  
7) laylakqor  
A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 5, 7 D) 1, 2, 6, 7
- 10.** Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir.  
Ushbu gapdagisi belgilangan so'zda ma'no qaysi usulda ko'chgan?  
A) *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa* D) *vazifadoshlik*
- 11.** Berilgan so'zlardan nechta yasama ravishlar sanaladi?  
birin-ketin, saharlab, olg'a, har gal, vaqtinchal, ertalabki, tiriklayin, bir mahal  
A) 7ta B) 6ta C) 5ta D) 4ta
- 12.** Olmoshning ma'noviy jihatdan 4 turi qatnashgan javobni aniqlang.  
A) *Shunisi quvonarligi, dunyoda o'z ezgu qadriyatlari bilan mashhur bo'lgan xalqlar ichida biz vatan deb e'zozlayotgan shu qadim yurtning ajododlarimizning ham o'z o'rni bor.*  
B) *O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat buyuk ajododlari xizmatlarini e'zozlashni o'rniiga go'yish boshqalaga ham uni e'tirof ettiradi.*  
C) *O'zimizniki emas bu umr, To'la menikimas, sezib turibman, Bir vaqtlar*

- meni deb halok bo'lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman.  
D) *Nadir millat qudratining tamadduni? Amir temur haykalidan so'rang buni, Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni? Jahongiri bexonomon yurt edi bu.*
- 13.** Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zoda, Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad. Olti oykim, do'starim ham pana-panada Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.  
Berilgan she'riy parchada qaysi kelishik qo'shimchasi ko'makchi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin?  
A) *qaratqich kelishigi qo'shimchasi*  
B) *chiqish va o'r'in-payt kelishigi qo'shimchasi*  
C) *chiqish kelishigi qo'shimchasi*  
D) *o'r'in-payt kelishigi qo'shimchasi*
- 14.** Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga oid birliklar qatnashgan gapni belgilang.  
A) *Yozuvchining vazifasi faqat yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimonini bo'lish bilan cheklanmaydi.*  
B) *Yuragini ezib turgan bu ezgin o'y-u fikrlar bilan chalg'ib, kech tushganini ham sezmay qolibdi.*  
C) *Boshqalar qatori o'zbek adabiyotida millatning o'ziga xos olami chuqur hamda ishonarli tasvirlangan asarlar bor.*  
D) *Yaxshilarni mahv etgan tuhmat va ig'vadan oldin yomonlarning chirkin qalbida hasad o'ti yongan.*
- 15.** Qaysi javobda to'rtta sodda gap ishtirok etgan?  
A) *Osti ham bir, ushti ham bir tuproqning, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*  
B) *Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu, Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu.*  
C) *Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*  
D) *Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov, Oz yeringni o'zing asra bo'lib döv.*
- 16.** Qaysi javobdagisi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?  
A) *ganch-boylik* B) *gangimoq-esankiramoq* C) *norg'ul-barzangi* D) *tanti-mard*
- 17.** Quyida berilgan qaysi gaplarda tire(lar) tushirib qoldirilgan?  
1. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish. 2. Rasadhona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlar darrov ko'rdi poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshkni to'sib, qaqqayib turardi. 3. Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam aka shu. 4. Mingbuluoq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.  
A) 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3 D) 1, 3
- 18.** Qaysi javobda aniqlanmishlar bevosita kesimga bog'langan?  
A) *Bunisi dimog'idan qor yog'adigan, burni ko'tarilgan boshliq edi.*  
B) *Shamol sovuqdan qaltilrayotgan daraxtlarni, so'lib qolg'an gullarni ayamay qamchilaydi.*  
C) *Olingen bilimlarni mustahkamlashga har doim intilmog'imiz kerak.*  
D) *Insonda hayotning mohiyatini tushunish qobiliyat tarixni anglash orqali shakllanadi.*
- 19.** Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,  
Ko'rmsa yaxshilarga yaxshilik ravo.  
Ushbu parchada qanday munosabatlari so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *boshqaruv va bitishuv* D) *moslashuv va boshqaruv*
- 20.** Quyidagi qo'shma gapda gap bo'laklari necha o'rinda so'z birikmasini hosil qilgan?  
Quyosh, oy hamda yulduzlar bitta umumiy qoidaga itoat etadi va ular bu qoidalardan qilcha ham chetlashmaydi.  
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
- 21.** - Bolajonim, o'z umrimmi ilm sirlarini o'rganishga sarf qildim. Ilm nuri bilan mushkul tugunlarni yechdim, ammo o'limga davo topolmadim.  
Keltirilgan parchadagi aniqlovchili birikmalar sonini toping.  
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
- 22.** U akalari bilan suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Hamma yerni gullagan bog'ga aylantiribdi. Shunda yurtni sonsiz yov bosibdi. Dushmanlar ekinzorlarni ayovsiz paymon qilishibdi, daraxtlarni yoqib yuborishibdi.  
Ushbu gapdagisi yasama so'zlar sonini belgilang.  
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6

23. Yunonistonlik faylasuf Arastu o'g'lini chaqirib shu so'zlarni aytibdi: - Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlarini o'rganish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora yo'q ekan.  
Keltirilgan parchada necha o'rinda yasama so'z qo'llangan.  
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
24. Qaysi gapda ham ot, ham sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan shakl yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
A) *Sotqinlarga safimizda o'rın yo'q.*  
B) *Ota olov va suv girdobkina ozodlik maydoniga chiga oladigan o'g'li borligidan g'ururlanar edi.*  
C) *Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.*  
D) *Ko'channing narigi yuzidagi do'konga bordik.*
25. Qaysi adib, zamondoshlarining eslashlaricha, qo'shiqni o'rniga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovropa musiqiy asboblarini mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qaysi pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o'ynagan?  
A) *Behbudiy* B) *Hamza* C) *Fitrat* D) *Abdulla Avloniy*
26. Yo'ldan oyna topib olgan zangi haqidagi naql kimming qaysi asarida uchraydi?  
A) *Sa'diy Sheraziyning "Bo'ston" asarida*  
B) *Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" asarida*  
C) *Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida*  
D) *Xojanining "Gulzor" asarida*
27. O'ta mavhum tuyg'u bo'lgan sevgini "yorilmagan yaraday" deya tasvirlagan?  
A) *Muhammad Yusuf* B) *Usmon Nosir* C) *Abdulla Oripov* D) *Erkin Vohidov*
28. Qoplonbek va Oymomo Tog'ay Murodning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?  
A) *"Ot kishnagan oqshom"*  
B) *"Otamdan qolgan dalalar"*  
C) *"Oydinda yurgan odamlar"*  
D) *"Yulduzlar mangu yonadi"*
29. Aruzning ramali musamrnani mahzuf (yoki maqsur) vaznida bitilgan bayt berilgan javobni aniqlang.  
A) *Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?" Derki: "Bois bo 'ldi jisrn ichra marazning shiddati"*  
B) *Dunyo chamanini(ng) bulbulisan, Gul shoxida oshiyon etib ket.*  
C) *Ko'zum qonimdin iymanmas, ajabtur, Ki: "Qo'rqr, qaydakim qon ko'rsa, hindu"*  
D) *Sensen sevavim, xoh inon, xoh inonrna, Qondur jigarim, xoh, inon, xoh inonrna.*
30. P.Qodirovning "Avlodlar dovon" asarida Sherxon kimming yordamida hiyla-bo'htonlar yo'li bilan bir zarbada ham Humoyunning eng sadoqatli kutvoli bo'lgan amir Bahuluni mahv etish, ham Hindol bilan akasining do'stligini adovatga aylantirishga erishgan edi?  
A) *La'l Chand* B) *Havaxxon* C) *Alvaro Pakavira* D) *Bikromadit Gaur*
31. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmaq,  
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!  
Shu so'zni aytти, tig' urdi o'zig'a,  
Ko'rinnmay qoldi keng olam ko'zig'a.  
Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?  
A) *Farhod, "Farhod va Shirin"*  
B) *Majnun, "Layli va Majnun"*  
C) *Suhayl, "Suhayl va Guldursun"*  
D) *Suhayl, "Sab'ayi sayyor"*
32. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar", - deya xushomadgo'yligi evaziga chopon kiyan obraz uchraydi?  
A) *"Mehrobdan chayon"* B) *"Advokatlik osonmi?"* C) *"Abulfayzon"* D) *"Sohibqiron"*
33. Quyidagi misralar qaysi adib qalamiga mansub?  
"Menda qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo'lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko'ngliga solganda qo'liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi!"  
A) *O'tkir Hoshimov* B) *Abdulla Qahhor* C) *Odil Yoqubov* D) *Asqad*

**Muxtor**

34. "Bu turk xalqiga qurolli dushmani keltirmadim, yalovli otni yogurtirmadim"  
Ushbu mardonavor so'zlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?  
A) *To'nyuquq* B) *Eltarish xoqon* C) *Kul Tigin* D) *Bilga xoqon*
35. "Aylar gazet" radifli g'azal muallifi kim?  
A) *Hamza* B) *Cho'lpon* C) *Avaz O'tar* D) *So'fizoda*
36. Sarv-u gul-u lola xaridori bor,  
Lek o'tinning dog'i bozori bor...  
Baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?  
A) *husni ta'lil* B) *tanosub* C) *tajnis* D) *tashxis*
- BIOLOGIYA**
37. Quyidagi berilgan genotiplarda qaysi biri 32 xildagi gametalar hosil qiladi?  
1) CcNnMmLLPpIi; 2) kkLijjCCPpTteeYy; 3) qqYyXxiIDDSsPpEe;  
4) DdXxqqRRPpGg; 5) YyGgKkIIssPpwwUu  
A) I,3 B) 2,4 C) 4,5 D) 3,5
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilari hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'yli o'simlik bilan chatishtililib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.  
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqt A genining dominant holatda bo'lishi junning malli, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtiligandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?  
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. DNK qo'sh zanjirida 180 ta vodorod bog'i bo'lib, uning 1/3 qismi guanin va sitozin orasida joylashgan bo'lsa, DNKdagi guanin nukleotidlar sonini toping.  
A) 60 B) 20 C) 40 D) 80
41. Fotosintez jarayonida 6 molekula CO<sub>2</sub> dan glukoza sintezlanganda hosil bo'lgan fosfat kislota miqdori necha molekula sut kislota hosil bo'ladijan achish jarayonida ishtirok etadigan fosfat kislota miqdoriga teng?  
A) 9 B) 72 C) 18 D) 36
42. O'simlik gulining tugunchasida 60 ta arxeosporaning ko'payishi natijasida hosil bo'lgan tuxum hujayrani urug'lantirish jarayonida nechta yetilgan chang donasi qatnashadi?  
A) 120 B) 52 C) 36 D) 60
43. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
1) suyakli baliqlar; 2) pardaganotililar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
44. Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.  
A) *avtoirof oziqlanadi*  
B) *tarkibida murein uchraydi*  
C) *xitin qobiqli hujayralari bor*  
D) *vegetativ usulda ko'payadi*
45. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan, miyasining hajmi 850-1220 sm<sup>3</sup> bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi ajoddarliga mansub?  
A) *kromanyon* B) *neandertal* C) *pitekantrup* D) *sinantrop*
46. Organizm (a) va biogeotsenozi (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.  
1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zambahrug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovdha o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati

- A) a-3,4; b-7   B) a-2,6; b-3   C) a-2,5; b-2   D) a-1,2; b-3,5
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 a) namlik; b) topografik;  
 1) gledichiying o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi; 2) zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi; 3) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi 4) o'simliklar o'tasida yorug'lik uchun kurash; 5) yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminizi rivojlanishi; 6) yomg'ir chuvalchanging yozda pillaga o'ralib uyquga ketishi.  
 A) 1,2,5   B) 2,3,6   C) 1,2,4   D) 3,5,6
48. Odam fenotipidagi anatomik (a) va histologik (b) belgilarni aniqlang.  
 1) epiteliy hujayralarning shakli yassi, kubsimon, silindrsimon bo'ladi; 2) silliq tolali muskullar duksimon tuzilgan bo'lib, tolosi juda kalta-0,1 mm atrofida bo'ladi; 3) nevronlar doirasimon, yulduzsimon, oval, noksimon, shaklga ega; 4) yelkaning oldindi sohasida ikki boshli muskul joylashgan 5) kekirdak VI-VII bo'yin umurtqalari ro'parasidan boshlanib, V ko'krak umurtqasi ro'parasida broxlarga bo'linadi; 6) normal qad-qomatning bo'yin va bel qismida umurtqa pog'onasi biroz oldingga, ko'krak va dumg'aza qismida biroz orqaga egilgan bo'ladi  
 A) a-4,5; b-2,4  
 B) a-2,3; b-4,6  
 C) a-4,5; b-2,3  
 D) a-1,2; b-4,5
49. Odamning ko'payishiga xos bo'lмаган ма'lumotlarni aniqlang.  
 A) *Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va estrogen ishlab chiqaradi.*  
 B) *Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshlab bachadonda 9 oy rivojlanadi.*  
 C) *Bachadonda bo'shilig'iga o'tgan homilaning tashqi qismidan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orqali homila bachadon devoriga birikadi.*  
 D) *X xromosomal spermatozoid va Y xromosomal tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.*
50. Qaysi kasalliklar nafas olish organlari kasalliklari emas?  
 1) rinit; 2) faringit; 3) traxiteit; 4) piyelonefrit; 5) botulizm; 6) ateroskreroz; 7) zotiljam; 8) laringit  
 A) 4,5,6  
 B) 1,2,3  
 C) 4,7,8  
 D) 4,5,7
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirot etadi  
 A) 1,4,5   B) 1,5   C) 2,6   D) 3,4,7
52. Pepsinga xos hususiyatlarni ko'rsating.  
 1) pepsin haqidagi axborat DNA da saqlanadi; 2) monomerlari o'zaro peptid bog'lar orqali birikadi; 3) tashqi sekretsiya bezi hujayralaridagi ribosomalar sintezlanadi; 4) o'n ikki barmoqli ichakda hosil bo'ladi xlorid kislota ta'srida faollandashi; 5) metabolizmning dastlabki bosqichida qatnashadi; 6) tarkibi bir xil monomerlardan tashkil topgan; 7) ingichka ichak devoridagi bezlardan ajraladi  
 A) 2,3,5   B) 1,4,6   C) 2,3,7   D) 1,6,7
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) *Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siyaplashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chiqurroq joylashgan.*  
 B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*  
 C) *Qulogning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.*  
 D) *Harakat analizatorining olyi nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'inining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Soxtaoyqililar sinfi vakillarining qolgan barcha sodda hayvonlarga o'xshashlik belgilarni aniqlang.  
 1) hujayra membranasining mavjudligi; 2) oziqlanish usuli; 3) harakatlanish organoidining bo'lishi; 4) hujayrasida yadroning bo'lishi; 5) ko'payish jarayoni
- A) I,2   B) I,4   C) 3,5   D) 2,4
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlariga xos xususiyatlarni aniqlang.  
 1) xitin po'st bilan qoplanmagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirot etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi  
 A) 2,3,6   B) 4,5   C) 1,3,5   D) I,4
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
 A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr  
 B) a-And kondori, kobra, ilonbo 'yin toshbaqa; b-arxar, bizon  
 C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha  
 D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Jag'larida kurak, qoziq va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.  
 1) latcha; 2) ondrat; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) tiyin; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan  
 A) I,3,10   B) 2,5,7   C) 4,9,10   D) 6,7,8
58. Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin moddadan iborat organizmlarni belgilang.  
 1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertisillium; 3) zang zamburug'i;  
 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma  
 A) 4,6   B) 1,6   C) 3,7   D) 2,5
59. Golji apparatiga ega bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlang.  
 1) tripanosoma; 2) gommoz qo'zg'atuvchisi; 3) vertisillium; 4) qorakuya; 5) bezgak paraziti; 6) quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi; 7) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 8) qizilcha qo'zg'atuvchisi; 9) leyshmaniya qo'zg'atuvchisi; 10) ichburug' amyobasi  
 A) I,6,10   B) 2,5,7   C) 8,9,10   D) I,3,4
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lмаган eukariot organizmlarni aniqlang.  
 1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertisill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi  
 A) I,4   B) 2,5   C) 6,7   D) 3,6
61. Meyoz natijasida hosil bo'ladi hujayralarni aniqlang.  
 1) itsigakning mikrosporasi; 2) sigirquyuq tuxum hujayrasi; 3) do'lana kapalagining tuxum hujayrasi; 4) quyonjunning tuxum hujayrasi; 5) g'o'za tunlamining gametasi; 6) gazandaning tuxum hujayrasi; 7) gatteriyaning spermatazoidi  
 A) I,3,5   B) 2,4,6   C) 2,4,7   D) 3,5,6
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.  
 1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka  
 A) 2,6,8   B) I,5,8   C) 2,4,7   D) I,3,6
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNA molekulasi BamHi restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNA bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNA molekulasi bo'laklarda 4% ga kam. Agar nukleotidlardan masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNA molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?  
 A) 480   B) 354   C) 370   D) 320
64. Gullari qiyshiqliq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
 1) o'tloq sebarsasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosissus  
 A) I,3,4,5  
 B) 2,4,5,6  
 C) I,2,3,6  
 D) 2,3,4,6
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
 A) a-umumiy gulpoja qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpojada gullar ketma-ket joylashgan  
 B) a-asosiy gulpojasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
 C) a-asosiy gulpojasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpojasi shoxlangan  
 D) a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpojaga uzun

- bandlar bilan birikadi*
66. "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulkosachabarglari va gultojibarglari beshtadan, ayimlarida gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan"  
Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.  
A) *bug'doydoshlar* B) *ziradoshlar* C) *sho'radoshlar* D) *piyozdoshlar*
67. Yuksak o'simlikning ikkinchi nomi va qaysi turkumga mansubligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
A) *qizilmiya-shirinmiya-burchoqdosh*  
B) *meksiqa g'o'zasi-oddiy g'o'za-g'o'za*  
C) *yapon laminariysi-dengiz karami-laminariya*  
D) *oq shuvoq-turon shuvog i-qoqio 'tdosh*
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lган belgilarni toping.  
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mayjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlisy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi; 6) mitokondriyada kislordoli oksidlanish sodir bo'lad  
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Itsigak (a) va isirg'ao't (b) ga xos bo'lган belgilarni ajrating.  
1) gultojibarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbargsiz; 3) avtoxor o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbargsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) sho'radoshlar oilasiga mansub; 7) dukkakdoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon  
A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7  
B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6  
C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8  
D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Oddiy va xaltali krot qiyofasining o'xshashligi qaysi hodisaga misol bo'la oladi?  
A) *biologik regress* B) *konvergensiya* C) *idioadaptatsiya* D) *degeneratsiya*
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.  
A) *yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns*  
B) *kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y*  
C) *jirafa, agama, kapachi qush, echkemar, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot*  
D) *antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog, echkemar*
72. Paleoarktik biogeografik viloyatiga mansub tuyoqli sute Mizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
1) zubr; 2) mufton; 3) sayg'oq; 4) koala; 5) maral; 6) kanna; 7) kabarga; 8) tog' kiyigi; 9) muskusli qo'y; 10) qunduz  
A) I,4,7 B) 3,5,8 C) 2,6,9 D) 2,5,10
- KIMYO**
73. Qaysi kauchuk sopolimerlanish reaksiyasidan olinadi?  
A) *ftorokauchuk*  
B) *siloksan kauchuk*  
C) *xloropren kauchuk*  
D) *izopren kauchuk*
74. Glyukoza neytral yoki ishqoriy muhitda sekin oksidlanganda hosil bo'ladijan oksikislodagi uglerodning oksidlanish darajalari yig'indisini aniqlang.  
A) +3 B) +2 C) +6 D) +4
75.  $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$  qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?  
A) *dissotsiyalanish darajasi*  
B) *qaytaruvchilik*  
C) *oksidlovchilik*  
D) *suvda eruvchanligi*
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, nukleotid tarkibida nechta timin bor? (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)  
A) 200 B) 300 C) 350 D) 250
77. Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislota hosil boladi?  
A) *β-aminopropan kislota*
- B) *β-aminobutan kislota*  
C) *a-aminopentan kislota*  
D) *a-aminobutan kislota*
78. Saxaroza gidrolizga uchratilgandan uning massasi 3,6 grammga ortdi. Gidroliz mahsulotlari nikel katalizatori ishtirokida vodorod bilan qaytarildi. Olingan mahsulot massasini (g) aniqlang.  
A) 72,8 B) 36,4 C) 44 D) 18,2
79. 0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchи reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:41 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotaning 1 ta molekulasi tarkibidagi  $sp^3$ -gibriddangan orbitallar sonini aniqlang.  
A) 4 B) 12 C) 16 D) 8
80. Tarkibida 1 ta  $sp^3-sp^2$  va 12 ta  $sp^3$  gibridd orbital tutgan benzol gomolog(lar)i nitrolanganda necha turdagи mononitrobirkma hosil bo'ladi? (yon zanjirming nitrolanishi hisobga olinmasin)  
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5
81. Quyidagi qaysi modda elektrolit hisoblanmaydi?  
A) *sirka kislota*  
B) *asetaldegid*  
C) *natriy sulfat*  
D) *ishqor*
82. 200 ml ( $\rho=0,8$ ) 97,75%li etanol eritmasini suvsizlantirish uchun necha gramm  $CaC_2$  zarur?  
A) 3,2 B) 12,8 C) 38,4 D) 6,4
83. O'zaro izomer bo'lган ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $CO_2$  gazi, 0,2 mol benzyo kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'lди. Tereftal kislotani hosil qilgan uglevodorod massasini (g) aniqlang.  
A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Mol nisbatlari mos ravishda 1:2:3 bo'lган buten-1, butin-1 va butandan iborat aralashma 5 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadiagi bromning massasi suvning massasidan 24 martta kichik bo'lsa, reaksiyaga kirishgan buten-1 massasini (g) aniqlang.  
A) 56 B) 14 C) 11,2 D) 28
85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
 $HF \rightarrow H_2O \rightarrow NH_3 \rightarrow CH_4$  a) ortadi; b) kamayadi  
A) I-a; 2-b; 3-a B) I-b; 2-a; 3-b C) I-b; 2-a; 3-a D) I-b; 2-b; 3-b
86. Necha gramm triakontan tarkibida 0,6· $N_A$  ta uglerod atomi bor?  
A) 8,44 B) 2,11 C) 6,33 D) 4,22
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrisk nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lган gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) I/9; 2/3; 2/9  
B) 2/5; 2/5; 1/5  
C) I/7; 3/7; 3/7  
D) I/4; 1/4; 1/2
88. Ra (228) atomi o'zidan 3 ta  $\alpha$  va 2 ta  $\beta^-$  zarrachalarni chiqarganda hosil bo'ladijan element tartib raqamini aniqlang.  
A) 88 B) 85 C) 86 D) 84
89. 0,06 mol  $CuSO_4 \cdot 3H_2O$  va  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'lди. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Quyidagi berilgan moddalar tarkibidagi  $\pi$  bog'lar soni qanday o'zgaradi?  
 $Ca_3(PO_4)_2 \rightarrow AlP \rightarrow C_2H_2 \rightarrow Al(H_2PO_4)_3$   
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi  
A) I-b; 2-a; 3-c B) I-b; 2-c; 3-b C) I-c; 2-b; 3-a D) I-c; 2-c; 3-a
91.  $2A + xB \rightarrow 2C$  reaksiyasida  $0,04 \cdot 10^2$  mol A moddaning 50% sarflangan, B ning 50% ortib qolgan. Jarayon 1 litrl idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli ortib qolgan? ( $K_m=1$ )

- A) 1 B) 4 C) 2 D) 5
92. 75 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?  
A) 39 B) 17,5 C) 25 D) 12,5
93. 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Eriqan moddaning molyar massasini (g/mol) aniqlang. ( Reaksiya sodir bo'lmaydi)  
A) 56 B) 40 C) 63 D) 98
94. 40 g X% li NaOH eritmasiga 60 g Y% li NaOH eritmasi qo'shildi. Natijada 24% li eritma olindi. Agar eritmalar konsentratsiyalari nisbati mos ravishda 1:2 kabi bo'lsa, Y ning qiymatini toping.  
A) 30 B) 32 C) 20 D) 24
95. Eritmadagi pH qiymati pOH qiymatidan 0,75 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
A) 8 B) 10 C) 12 D) 11
96.  $\text{XO}_4^{3-} \rightarrow \text{X}^{3-}$  Ushbu qaytarilish jarayonida  $\text{X}^{3-}$  qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan 33/8 marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
A) P B) As C) N D) Sb
97.  $\text{MnO}_2 + \text{NaClO}_3 + \text{NaOH} = \text{Na}_2\text{MnO}_4 + \text{H}_2\text{O} + \dots$ reaksiya tenglamasini tugallang va tenglamaning o'ng tomonidagi koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.  
A) 7 B) 9 C) 4 D) 10
98. 0,28 % li KOH ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. ( $\rho=1,55 \text{ g/ml}$ )  
A) 12 B) 13 C) 11 D) 4
99. 14 g metall oksididan 27,75 g metal xloridi olingan. Shu metal hosil qilgan sulfid tuzining 0,3 mol massasini (g) aniqlang.  
A) 26,4 B) 29,1 C) 21,6 D) 50,7
100. Ammoniying karbonati va gidrokarbonati qizdirishdan olingen gaz mahsuloti normal sharoitga keltirildi. So'ngra gazlar aralashmasi mo'l miqdordagi xlorid kislota eritmasidan o'tkazildi. Natijada gazlar aralashmasining hajmi 2,5 marta kamayadi. Dastlabki aralashmadagi tuzlarning mol nisbatini toping.  
A) 1:2 B) 1:4 C) 1:1 D) 1:5
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, litiyning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102.  $\text{MeSO}_4$  ning 160 g 10%li to'yigan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g  $\text{MeSO}_4 \cdot 7 \text{ H}_2\text{O}$  cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103.  $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + z\text{CO}_2$  ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
C)  $\text{MgCO}_3$  tarkibida qo'shimchalar borligini  
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Azot, azot(II) oksid va azot(IV)oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay goldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislorod qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi  $\text{NO}_2$  ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.  
A) 50 B) 75 C) 25 D) 40
105. 10,96 g  $\text{Ca}_3\text{N}_2$  va  $\text{CaH}_2$  dan iborat aralashma teng ikki qismiga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladiqan  $\text{CaCl}_2$  ning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasini susaytiradi?  
A)  $\text{MgSO}_4$   
B)  $\text{NaNO}_3$   
C)  $\text{K}_2\text{SO}_3$
- D)  $\text{ZnCl}_2$
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 4 ta azot atomi massasiga teng alkenni aniqlang.  
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. Propan va pentan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan  $\text{CO}_2$  miqdori suvning miqdoridan 0,3 molga kam, sarflangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan  $\text{CO}_2$  miqdoridan 0,7 mol ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi propanning miqdorini (mol) aniqlang.  
A) 0,2 B) 0,3 C) 0,1 D) 0,5